

UO‘K(UDC, УДК): 81’44

INGLIZ VA O‘ZBEK MEDIADISKURSIDA OBYEKTIV MODALLIK VOSITALARINING QIYOSIY-KORPUS TAHLILI²⁴

Dilrabo Nazirqulova Zafariddin qizi

Mustaqil izlanuvchi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: Dilrabozaafarovna3@gmail.com

ORCID ID: [0009-0006-4401-7607](https://orcid.org/0009-0006-4401-7607)

ANNOTATSIYA	KALIT SO‘ZLAR
Ushbu maqola ingliz va o‘zbek tillaridagi zamonaviy media matnlarida obyektiv modallik toifasining lingvopragmatik xususiyatlarini qiyosiy-tahlil qilish hamda xabarni neytral shaklda uzatish mexanizmlarini aniqlash maqsadiga bag‘ishlangan. Belgilangan maqsadga erishish uchun media diskursida obyektivlikni shakllantiruvchi leksik va sintaktik vositalarni tasniflash, AntConc dasturi yordamida korpus bazasini yaratish hamda har ikki til tizimidagi o‘xshash va farqli pragmatik jihatlarni qiyosiy modellashtirish vazifalari bajarildi. Tadqiqot jarayonida AntConc dasturiy ta‘minoti vositasida korpus tahlili, diskursiv tahlil, qiyosiy-tipologik va kontekstual tahlil metodlaridan unumli foydalanildi. Olib borilgan qiyosiy tahlillar natijasida ingliz media matnlarida obyektivlik asosan modal fe‘llar va passiv konstruksiyalar orqali yuzaga chiqishi, o‘zbek mediadiskursida esa ushbu pragmatik vazifa ko‘proq aniqlik bildiruvchi tahliliy terminlar va muqarrarlik semantikasiga ega maxsus sintaktik qurilmalar orqali ta‘minlanishi aniqlandi. Tadqiqot yakunida har ikki tilda ham obyektiv modallik shunchaki grammatik ko‘rinish emas, balki auditoriya ishonchini qozonish va publitsistik matnni tahliliy-neytral rejimga o‘tkazishning asosiy lingvopragmatik vositasi bo‘lib xizmat qilishi haqidagi qat’iy xulosaga kelindi. Ushbu tahlillarning miqdoriy va sifat natijalari kelajakdagi istiqbolli izlanishlarga fundamental vazifasini o‘taydi.	Mediadiskurs, obyektivlik, AntConc, qiyosiy-korpus tahlil, lingvopragmatik, OAV tili, kommunikatsiya, neytrallashuv, obyektiv modallik, mediamatn. Received: June 10, 2026 Accepted: June 22, 2026 Available online: September 5, 2026

²⁴ For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Nazirqulova D. Ingliz va o‘zbek mediadiskursida obyektiv modallik vositalarining qiyosiy-korpus tahlili.// Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 4(12) — B. 380-394.

COMPARATIVE CORPUS-BASED ANALYSIS OF OBJECTIVE MODALITY MEANS IN ENGLISH AND UZBEK MEDIA DISCOURSE

Dilrabo Nazirqulova Zafariddin qizi

Independent Researcher

Uzbekistan State University of World Languages

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: Dilrabozaфарovna3@gmail.com

ORCID ID: [0009-0006-4401-7607](https://orcid.org/0009-0006-4401-7607)

ABSTRACT	KEYWORDS
This article is devoted to a comparative analysis of the linguistic-pragmatic characteristics of the category of objective modality in modern English and Uzbek media texts, as well as to identifying the mechanisms of neutral information transmission. To achieve this set aim, the tasks of classifying lexical and syntactic means shaping objectivity in media discourse, building a corpus database using AntConc software, and comparatively modeling similar and distinctive pragmatic aspects within both language systems were fulfilled. Corpus analysis methods using AntConc software, discursive analysis, comparative-typological, and contextual methods were applied in the course of the research. The research results determined that objectivity in English media texts is primarily manifested through modal verbs and passive constructions, whereas in Uzbek media discourse, this pragmatic function is performed by analytical terms expressing precision and syntactic structures embedded with the semantics of certainty. In conclusion, the research argues that in both languages, objective modality functions not merely as a grammatical category, but acts as a primary linguistic-pragmatic tool for gaining audience trust and shifting a journalistic text into an analytical-neutral mode.	Media discourse, objectivity, AntConc, comparative-corpus analysis, linguistic-pragmatic, media language, communication, neutralization, objective modality, media text.

СРАВНИТЕЛЬНО-КОРПУСНЫЙ АНАЛИЗ СРЕДСТВ ВЫРАЖЕНИЯ ОБЪЕКТИВНОЙ МОДАЛЬНОСТИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ МЕДИАДИСКУРСЕ

Дилрабо Назиркулова Зафариддин кизи

Независимый исследователь

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

E-mail: Dilrabozafarovna3@gmail.com

ORCID ID: [0009-0006-4401-7607](https://orcid.org/0009-0006-4401-7607)

АННОТАЦИЯ				КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
Данная статья посвящена сравнительно-сопоставительному анализу лингвопрагматических особенностей категории объективной модальности в современных медиатекстах на английском и узбекском языках, а также выявлению механизмов нейтральной передачи информации. Для достижения поставленной цели были решены задачи по классификации лексических и синтаксических средств, формирующих объективность в медиадискурсе, формированию корпусной базы данных с помощью программы AntConc и сравнительному моделированию сходных и отличительных прагматических аспектов в системах обоих языков. В ходе исследования были применены методы корпусного анализа с использованием программного обеспечения AntConc, дискурсивного анализа, а также сравнительно-типологический и контекстуальный методы. Результаты исследования показали, что в английских медиатекстах объективность выражается преимущественно через модальные глаголы и пассивные конструкции, тогда как в узбекском медиадискурсе эта прагматическая функция обеспечивается аналитическими терминами, выражающими точность, и синтаксическими структурами с семантикой неизбежности. В заключении исследования делается вывод о том, что в обоих языках объективная модальность является не просто грамматической категорией, а ключевым лингвопрагматическим инструментом завоевания доверия аудитории и перевода публицистического текста в нейтральный аналитический режим. Количественные и качественные результаты проведенного детального анализа послужат важной фундаментальной основой для будущих научно-исследовательских работ в этой перспективной области.				Медиадискурс, объективность, AntConc, сравнительно-корпусный анализ, лингвопрагматический, язык СМИ, коммуникация, нейтрализация, объективная модальность, медиатекст.

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikda mediadiskurs tahlili tilning lingvopragmatik va semantik vositalari tizimida modallik kategoriyasining oʻrni sotsial-kommunikativ nuqtayi nazardan alohida ahamiyat kasb etadi. Axborot oqimi globallashtgan va OAV platformalari ijtimoiy fikrni shakllantirishning asosiy quroliga aylangan hozirgi davrda, siyosiy va axborot xarakteridagi mediamatnlarda kommunikatorning voqelikni baholash usuli hamda maʼlumotning ishonchlilik darajasi bevosita ushbu kategoriya orqali reallashadi. Mediadiskursda axborotning real borliqqa mos kelish darajasi, manbaning neytral pozitsiyasi va xolislik tamoyili, birinchi navbatda obyektiv modallik koʻrinishlari yordamida shakllantiriladi. Biroq mediamatnlarning ommaviy taʼsir koʻrsatish tabiati sababli subyektiv kontekstda axborotning qanday qilib “obyektiv” tarzda taqdim etilishi, “fakt” va “fikir” (opinion) oʻrtasidagi pragma-semantik chegaraning belgilanishi hamda turli tizimli va madaniy-lingvistik muhitlarda obyektivlikning oʻziga xos talqin qilinishi zamonaviy tilshunoslikda dolzarb muammolardan biri boʻlib qolmoqda.

Mazkur muammoni hal etishda anʼanaviy deskriptiv metodlar oʻz oʻrnini kompyuter-lingvistik va statistik modelga boʻshatib bermoqda. Jahon tilshunosligida mediadiskurs va modallik munosabati keng tadqiq qilingan. Xususan, F.Palmer modallikni mantiqiy-semantik nuqtayi nazardan tasniflab, deontik va epistemik turlarga ajratgan boʻlsa (Palmer F., 2001, 24-25), J.Nuyts va J.van der Auwera modallikning intersubyektiv tabiatini konseptual jihatdan asoslab bergan (Nuyts J., van der Auwera J., 2016, 73). M.Bednarek mediamatnlardagi baholash va epistemik modallik markerlarining institutsional neytrallashtirish strategiyasini oʻrgangan (Bednarek M., 2006, 63-64), N.Fairclough esa tanqidiy diskurs tahlili nuqtayi nazaridan koʻchirma gap va passivlashtirish hodisalarini depersonalizatsiya mexanizmi sifatida talqin etgan (Fairclough N., 2013, 94). Korpusga asoslangan tadqiqot metodologiyasining nazariy-amaliy asoslari P.Baker tomonidan ishlab chiqilgan boʻlib, olim mediadiskursdagi yashirin mafkuraviy va pragmatik maʼnolarni faqat katta hajmli matnlar korpusi yordamida obyektiv tarzda verifikatsiyalash mumkinligini taʼkidlaydi (Baker P., 2006, 12). Oʻzbek

tilshunosligida modallik kategoriyasining grammatik, semantik va stilistik tabiati A.Hojiyev, M.Asqarova va kabi fundamental tadqiqotchilar ishlarida umumnazariy jihatdan yoritilgan bo'lsa-da, bevosita media va diskurs tahlili doirasida so'nggi yillarda qator ixtisoslashgan izlanishlar olib borildi. Xususan, D.Boymatova *murakkablashgan sodda gaplar misolida aksiologik (baholovchi) modallikning semantik-pragmatik tabiatini tahlil qilib, subyektning voqea-hodisalarga nisbatan subyektiv munosabati va bahosining modallik markerlari orqali til sathlarida voqelanish xususiyatlarini ochib bergan* (Boymatova D., 2024, 14). OAV matnlarining *kommunikativ va funksional tabiati, xususan, ingliz va o'zbek gazeta sarlavhalarining informativlik hamda ekspressivlik xususiyatlari* D.Bobojonov *tomonidan pragmatik aspektda qiyosiy o'rganilib, sarlavhalarining transformatsion salohiyati ko'rsatib berilgan* (Bobojonov D., 2024, 199). Shuningdek, o'zbek tilshunosligida publitsistik diskursning pragmatik xususiyatlari va undagi subyektiv modallikning, ya'ni muallif pozitsiyasining matn sathida ifodalanish prinsiplari hamda axborot manipulyatsiyasi mexanizmlari qisman tadqiq etilgan (Shukurova Z., 2022, 45). Shunga qaramay, o'zbek tilshunosligida amalga oshirilgan ishlarning aksariyatida modallik kategoriyasi ko'proq subyektiv-baholovchi (aksiologik) yoki matn munosabatlari kontekstida tahlil qilingan bo'lib, ingliz va o'zbek mediadiskursida **obyektiv modallikning** (axborotni xolis, neytral va faktik rejimda uzatish vositalarining) korpusga asoslangan qiyosiy-statistik modeli ishlab chiqilmagan. Xususan, OAV matnlarida evidensiallik (axborot manbasini ko'rsatish), faktiklik va registersiz neytral terminologik vositalarning miqdoriy hamda sifat nisbati kompyuter lingvistikasi (AntConc dasturiy muhiti) yordamida qiyosiy-statistik tahlil obyekti sifatida maxsus o'rganilmagan. Mazkur yo'nalishdagi tizimli tadqiqotning yo'qligi va ikki xil tizimli tillar mediadiskursida obyektivlikni shakllantiruvchi lingvopragmatik vositalarni korpus orqali verifikatsiyalash zarurati ushbu ishning ilmiy yangiligini belgilaydi. Mazkur tadqiqot ingliz va o'zbek mediadiskursida obyektiv modallik vositalarining ifodalanish xususiyatlarini tizimli va qiyosiy-korpus tahlili orqali o'rganishga bag'ishlanadi. Tadqiqotda asosiy e'tibor mediamatnlarning informativ funksiyasini

ta'minlovchi leksik-grammatik vositalarning lingvopragmatik tabiatini ochib berishga qaratilgan. Mediadiskursda voqelikning reallik/irreallik xususiyatlarini ko'rsatuvchi obyektiv modallik markerlari bilan bir qatorda, matn qatlamlarida muallif niyati va pragmatik maqsadiga ko'ra namoyon bo'luvchi deontik (majburiyat, zaruriyat) va epistemik (bilish va ishonch) modallik vositalarining o'zaro funksional mutanosibligi qiyosiy jihatdan o'rganiladi.

Tadqiqotning maqsadi – ingliz va o'zbek tillaridagi medianashrlardan olingan 100ta matn bazasida AntConc dasturi yordamida obyektiv modallik vositalarining ifodalanish xususiyatlarini qiyosiy-korpus tahlili orqali tizimli o'rganish va ularning lingvopragmatik tabiatini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish quyidagi vazifalarni amalga oshirish orqali amalga oshadi:

1. Mediamatnlarda deontik modallik mazmunining majburiyat, ruxsat yoki taqiq kabi semantik qoliplar orqali reallashuvini aniqlash;
2. Epistemik modallik qatlamlarining individual subyektivlikdan xoli qilinib, verifikatsiyalangan bilim shaklida neytrallashuv jarayonlarini baholash;
3. Ko'chirma gaplar va manba ko'rsatkichlari (evidensiallik) orqali nutqiy javobgarlikni pasaytirish mexanizmlarini qiyosiy tahlil qilish;
4. Statistik ma'lumotlar va maxsus terminologiyaning axborotga obyektivlik va xolislik tusi berishdagi pragma-semantik tabiatini ochib berish.

Mediadiskursda deontik modallik sotsial-kommunikativ muhitda, odatda rasmiy qonunlar, davlatlararo bitimlar, turli nizom va umumiy tartib-qoidalarga tayangani sababli, muallifning individual subyektiv fikr-bahosidan xoli bo'ladi va obyektivlik xarakterini kasb etadi. Taniqli modalist olim F.Palmer ta'kidlaganidek, deontik modallik so'zlovchining individual istaklaridan ko'ra ko'proq tashqi sotsial kuch – qonun, ijtimoiy me'yori va majburiyatlardan kelib chiqadigan zaruriyatni ifodalaydi (Palmer F.,2001,9). Xususan ingliz tilidagi mediadiskurs tarkibida *must*, *have to*, *is required to*, *it is mandatory that...* kabi modal fe'llar va funksional birliklar qonuniy zaruriyatni ifodalashga xizmat qilsa, o'zbek mediadiskursida bu holat *shart*, *lozim*, *qonun talabiga binoan*, *majburiy* kabi leksik va sintaktik konstruksiyalar orqali namoyon bo'ladi. Aynan shu turdagi rasmiy-zaruriyat

vositalari muayyan turdagi mediakontekstlarda va muallif intensionalligi faollashgan o‘rinlarda qayta subyektivlashishi mumkin.

Mediadiskursda obyektivlik ko‘rinishlarini shakllantirishda epistemik modallikning neytrallashuv jarayonlari ham muhim xarakter kasb etadi. Epistemik modallik subyektning axborotga bo‘lgan shubhasi yoki ishonchini aks ettirsada, mediamatn tarkibida ushbu kategoriya ko‘pincha individual subyektivlikdan xoli tarzda, verifikatsiyalangan (tasdiqlangan) bilim shaklida taqdim etiladi. Ya’ni muallif o‘z shaxsiy taxminini ommaviy axborot vositasi nomidan umumiy haqiqat sifatida neytrallashtiradi. Mediadiskursda ushbu vositalarning obyektivlik prinsiplari asosida neytrallashuvini ta’minlash uchun kishisiz va passiv konstruksiyalardan unumli foyadalaniladi. Ingliz tilidagi mediadiskurs namunalarida *“It is reported that..., it is believed that..., it is known that...”* kabi kishisiz qoliplar va passiv fe’l shakllari (*was stated, has been confirmed*), o‘zbek tilida esa *aytilishicha, xabar qilinishicha, ma’lum bo‘lishicha* kabi sintaktik qurilmalar va majhul nisbatdagi fe’llar muallif pozitsiyasini neytrallashtirish, axborotga umumfaktik tus berish funksiyasini bajaradi.

Bunga qo‘shimcha tarzda, ingliz va o‘zbek mediadiskursida *Undoubtedly, it is certain that, albatta, shubhasiz, aniqlik bilan* kabi modal ravishlar va aniqllovchi leksemalar tabiatan muallifning shaxsiy bilish qat’iyatini ifodalasa-da, mediadiskurs tarkibida ushbu vositalar axborotning obyektivlik argumentini shakllantirib, auditoriyada xabarning mutlaq obyektivlikka asoslanganligi haqidagi illyuziyani yuzaga keltiradi. Shuning bilan birga mediadiskurs tarkibida faol qo‘llaniladigan *according to, as stated by, sources say* hamda o‘zbek tilidagi *...ga ko‘ra, ma’lumotlarga binoan, ta’kidlanishicha, rasmiy manbalarga tayanib* kabi evidensial modallik markerlari konkret manbaga ishora qilib, muallif zimmasidagi nutqiy javobgarlikni pasaytirish mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Modallik kategoriyasining funksional-semantik qatlamlari hamda ularning obyektivlik prinsiplari asosida neytrallashuv qonuniyatlariga oid ushbu nazariy qarashlar tadqiqotning keyingi bosqichida ingliz va o‘zbek mediadiskursi

materiallarini pragmatik funksiyalar kesimida empirik va qiyosiy-korpus tahlil etish uchun metodologik zamin yaratadi.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda ingliz va o'zbek mediadiskursida obyektiv modallik vositalarining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini tizimli tahlil qilish maqsadida qiyosiy-korpus tahlili (Corpus-based analysis) metodologiyasiga tayanildi. Tadqiqotning empirik bazasini tahlil qilish uchun AntConc (4.2.0) maxsus kompyuter dasturidan foydalanildi.

Tadqiqot korpusi ikki tizimli sub-korpusga ajratilgan holda shakllantirildi:

1. Ingliz tili sub-korpusi: *The Guardian*, *BBC*, *Politico*, *The Globe and Mail*, *CNN*, *New York Post* kabi nufuzli xalqaro nashrlardan olingan 50 ta mediadiskurs namunasini o'z ichiga oladi (jami 36 727 so'z)
2. O'zbek tili sub-korpusi: *Kun.uz*, *Daryo.uz*, *Gazeta.uz* kabi onlayn axborot nashrlaridan olingan 50 ta mediadiskurs namunasini qamarab oladi (jami 18 134 so'z).

Sub-korpuslar tarkibidagi matnlar soni teng (50/50) bo'lsa-da, so'z hajmi bo'yicha keskin farq mavjudligi sababli, matematik va statik mezonlar muvozanatini ta'minlash maqsadida har 10 000 so'zga to'g'ri keluvchi nisbiy chastota (relative frequency) o'lchovi sihlab chiqildi. Korpus tahlili jarayonida obyektiv modallikni yuzaga keltiruvchi 6ta asosiy lisoniy vosita (ko'chirma gaplar va nutq fe'llari, manba ko'rsatkichlari, passiv konstruksiyalar, faktik ma'lumotlar va sohaviy terminologiya) qidiruv parametrlari (indikatorlar) sifatida belgilandi.

NATIJALAR

AntConc 4.2.0 dasturi yordamida har ikki tildagi sub-korpuslarni avtomatlashtirilgan holda qayta ishlash natijasida olingan miqdoriy ko'rsatkichlar tizimlashtirildi va maxsus qiyosiy jadval ko'rinishiga keltirildi.

1-jadval.

Mediadiskursda obyektiv modallik vositalarining qiyosiy tahlili

Obyektiv modallik vositalari	Ingliz tili (36 727 soʻz)	Oʻzbek tili (18 134 soʻz)	Har 10 000 soʻzga (Ingliz)	Har 10 000 soʻzga (Oʻzb)
1.Koʻchirma gaplar	409	60	111.3	33.0
2.Manba koʻrsatkichlari	64	65	17.4	35.8
3.Passiv konstruksiyalar	7	86	1.9	47.4
4.Shaxssiz gaplar	9	20	2.4	11.0
5.Faktik maʼlumotlar	164	141	44.6	77.7
6.Terminologiya	255	330	69.4	181.9
JAMI	908	702	247.2	387.1

Jadval maʼlumotlaridan koʻrinib turibdiki, ingliz mediadiskursida mutlaq koʻrsatkich boʻyicha 908 ta birlik qayd etilgan boʻlsa-da, har 10 000 soʻzga hisoblanganda intensivlik darajasi 247.2 birlikni tashkil etmoqda. Oʻzbek mediadiskursida esa aksincha, umumiy hajmdagi matn nisbatan qisqa boʻlishiga qaramay, har 10 000 soʻzlik kesimda obyektiv modallik vositalarining intensivligi 387.1 birlikka teng boʻlib, ingliz tiliga qaraganda yuqori zichlikni namoyon etmoqda.

MUNOZARA

Tadqiqot davomida olingan statistik maʼlumotlarning pragma-semantik tahlili ingliz va oʻzbek tillarining ham tipologik (analitik/agglyutinatív) tuzilishi, ham milliy jurnalistika anʼanalari oʻrtasidagi konseptual farqlarni ochib beradi. Eng keskin diskursiv tafovut koʻchirma gaplar qoʻllanilishida koʻzga tashlanadi. Ingliz mediadiskursida ushbu koʻrsatkich har 10 000 soʻzda 111.3 marta qoʻllanilib, oʻzbek tilidagidan (33.0) qariyb 3.4 marta yuqoridir. Bu holat gʻarb jurnalistikasidagi

“ovozni ko‘rsatish” (voicing) va tahliliy-tanqidiy yondashuv ustunligini ko‘rsatadi. Chunonchi, New York Post/AOL News nashridan olingan namunada:

“The potential deployment would likely include infantry and armored vehicles and would be on top of the 5,000 Marines....according to the World Street Journal” parchasi tarkibidagi subyektiv deb qaralishi mumkin bo‘lgan ehtimoliy (*likely*) ehtimol modal so‘zi nufuzli tashqi manba (*Wall Street Journal*) verifikatsiyasiga tayanishi hamda aniq raqamlar (5,000 marines, 2,000 members) keltirilishi orqali pragmatik jihatdan “mantiqiy obyektiv fakt” darajasiga ko‘tariladi. Muallif shu yo‘l bilan individual subyektivlikdan qochib, axborot mas‘uliyatini uchinchi shaxsga yuklaydi.

Xuddi shunday, The New York Times nashridagi *“Ecuador’s defence ministry said it cooperated with the United States to validate intelligence information on the site in northeastern Ecuador for Operation Total Extermination in early March”*

jumlasi ham “said” nutq fe‘li orqali axborot mas‘uliyatini yirik davlat institut zimmasiga yuklab, muallifni kelgusi xatoliklardan himoya qiladi va jurnalistni “neytral informator” roliga o‘tkazadi. Pragmatik jihatdan muallif o‘zini kelgusida axborot noto‘g‘ri yoki yolg‘on bo‘lib chiqishi mumkin bo‘lgan huquqiy va ijtimoiy javobgarlikdan himoya qiladi (chunki xabarda aytilgan operatsiya keyinchalik fermer xo‘jaligining bombardimon qilinishi bo‘lib chiqqan).

O‘zbek mediadiskursida esa, “...ga ko‘ra”, “ma’lumotlarga binoan”, “ta’kidlanishicha” kabi evidensial markerlar diskursni institutlashtirish uchun xizmat qiladi. Masalan:

“BMT ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda dunyo bo‘ylab xalqaro migrantlar soni 304 million kishiga yetgan... Jahon banki hisob-kitoblariga ko‘ra esa...”

Mazkur axborotni berish orqali jurnalist taqdim etilayotgan axborotni verifikatsiyalangan obyektiv ma’lumot sifatida taqdim etadi va o‘z shaxsiy pozitsiyasini butunlay yashiradi.

Aksincha manba ko‘rsatkichlari (evidensiallik) vositalari O‘zbekistonda 35.8, ingliz tilida 17.4 hamda passiv konstruksiyalar – O‘zbekistonda 47.4, inglizda

1.9 bo'yicha o'zbek mediadiskursining ko'rsatkichlari nihoyatda yuqori. O'zbek matnlarida agentlikni (harakat bajaruvchisini) yashirish uchun passiv qurilmalarga tayanish ingliz tiliga nisbatan 25 marta ko'p ekanligi aniqlandi. Kun.uz nashridan olingan quyidagi parcha fikrlarimizning yaqqol misolidir:

“Raqobat qo'mitasining hududiy organlari tomonidan... 80 dan ortiq qonunbuzilish holatlari aniqlandi.”

Majhul nisbatdagi *“aniqlandi”* fe'li aniq shaxs omilini diskursdan chiqarib tashlaydi va o'quvchining diqqatini faqat institutsional jarayonga qaratadi. Bu esa pragmatik-semantik sathda subyektivlikni nolga tushirib, axborotga neytral-umumfaktik tus beradi. Bu M.Bednarek tomonidan ilgari surilgan *“baholash markerlarining institutsional fonga yashirilishi”* qonuniyatini to'liq tasdiqlaydi.

Xuddi shu singari o'zbek mediadiskursidagi terminologiya (181.9) va faktik ma'lumotlar (77.7) ko'rsatkichlarining yuqorililigi milliy media makonida axborot-xabardorlik va rasmiy-institutsional ritorikaning ustunligini isbotlaydi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sharhiga asoslangan matnda xalqaro tashkilotlar (BMT, Jahon banki) manba qilib ko'rsatilib, raqamli argumentlar (304 million kishi, 3.7 foiz, 900 milliard dollar) keltirilishi jurnalistning o'quvchiga *“men o'z fikrimni aytmayapman, bu-global miqyosda tan olingan fakt”* degan pragmatik signalni yuborishiga va mutlaq obyektivlik illyuziyasini yaratishga xizmat qiladi va natijada xabarning shubhasizligi va muqarrarliligi ta'minlanadi.

XULOSA

Obyektiv modallik vositalarining ingliz va o'zbek mediadiskursi materiallari asosida o'tkazilgan qiyosiy-korpus tahlili va lingvopragmatik tadqiqi ushbu lisoniy kategoriyaning matn shakllantirish hamda manipulyativ tabiatiga oid qator konkret ilmiy xulosalar va tizimli yangiliklarni shakllantirishga zamin yaratdi.

1. Obyektiv modallikning pragma-funksional integratsiyalashuvi. Tadqiqot natijasida aniqlandiki, obyektiv modallik kategoriyasi har ikki til tizimida ham axborotning ishonchliligi, xolisligi, neytralligi va verifikatsiyalanganligini ta'minlashdek mushtarak pragmatik maqsadga xizmat qiladi. Biroq ushbu umumiy va mantiqiy asos mediadiskurs tarkibidagi reallashuv mexanizmlari,

lingvistik vositalari hamda tanlangan diskursiv strategiyalari jihatidan tizimlararo chuqur milliy-madaniy va strukturaviy farqlarga ega.

2. Ingliz mediadiskursida “Ochiq obyektivlik” modeli va lisoniy yangiliklar. Ingliz tilidagi mediadiskurs tarkibida axborot legitimatsiyasini ta’minlashda muallif subyektivlikni chetga surish to’g’ridan-to’g’ri va ochiq argumentatsiya vositalari orqali amalga oshadi. Korpus tahlili natijasida ingliz tilida ko’chirma gaplarning intensivligi (har 10 000 so’zda 111.3 birlik) o’zbek tiliga (33.0 birlik) qaraganda 3.4 marta yuqori ekanligi o’zbek va g’arb publitsistikasidagi eng fundamental yangilikdir. G’arb media makonida muallif shunchaki “neytral koordinator” rolini o’z zimmasiga oladi va “ovozni ko’rsatish” (voicing) strategiyasi orqali propozitsiya mas’uliyatini uchinchi tomonga yuklaydi.
3. O’zbek mediadiskursida “Yopiq obyektivlik” modeli va structural-semantik mexanizmlar:

O’zbek rasmiy mediadiskursi uchun shaxs va muallif omilini butkul neytrallashtirishga qaratilgan de-subyektivizatsiya va deagentizatsiya qonuniyatlari xarakterli ekanligi isbotlandi. Bu modelda agentlikni (harakat bajaruvchisini) yashirishda o’zbek tili passiv konstruksiyalardan foydalanish bo’yicha ingliz tiliga nisbatan 25 marta yuqori ko’rsatkichni (47.4 ga nisbatan 1.9) namoyon etdi. O’zbek mediadiskursi tarkibidagi faktologik raqamlar (77.7) va sohaviy terminologiya (181.9) orqali axborot zichligi sun’iy ravishda oshiriladi va bu auditoriyada xabarning daxlsizligi illyuziyasini shakllantiradi.

Mazkur tadqiqot doirasida olingan natijalar va ishlab chiqilgan qiyosiy-korpus metodologiyasi tilshunoslikning bir qator istiqbolli yo’nalishlarida, jumladan mediamatnlarda obyektivlik illyuziyasini yaratuvchi freym va konseptlar tizimini kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etish hamda ushbu vositalarning qo’llanilishida jurnalistlarning gender mansubligi va sohaga ixtisoslashganligi (siyosiy sharhlovchilar, harbiy jurnalistlar va h.k) omillarini qiyosiy tahlilga tortish kabi keng ko’lamli va chuqur izlanishlarini davom ettirish uchun fundamental baza vazifasini o’taydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Anthony, L. AntConc (Version 4.2.0) [Computer Software]. - Tokyo: Waseda University, 2022. – Available at: <https://www.laurenceanthony.net/software/antconc/>
2. Asqarov, D. 25 mlrd so‘mlik davlat xaridlarida qonunbuzilishlar aniqlandi. Kun.uz elektron nashri. (2026, 28 mart). – URL: <https://kun.uz/news/2026/03/28/25-mlrd-somlik-davlat-xaridlarida-qonunbuzilishlar-aniqlandi>
3. Bednarek, M. Evaluation in Media Discourse: Analysis of a Newspaper Corpus. London; - New York: Continuum, 2006. – 256 p.
4. Bobojonov, D. Ingliz va o‘zbek tillari gazeta sarlavhalarining pragmatik xususiyatlari. Filologiya masalalari, 2024. (2), 195–202.
5. Boymatova, D. Murakkablashgan sodda gaplarda aksiologik modallikning semantik-pragmatik tadqiqi. O‘zbekistonda xorijiy tillar, 2024. 3(52), 12–19.
6. Fairclough, N. Critical Discourse Analysis: The Critical Study of Language (2nd ed.). - London: Routledge, 2013. – 616 p.
7. Ferré-Sadurní, L., & Romero, S. The U.S. said it helped bomb a drug camp. It was a dairy farm. The New York Times. (2026, March 24). – URL: <https://www.nytimes.com/2026/03/24/world/americas/us-ecuador-drug-camp-bombing-dairy-farm.html>
8. Nava, V. Pentagon considering sending 10k troops to the Middle East: report. The New York Post. (2026, March 26). – URL: <https://nypost.com/2026/03/26/us-news/pentagon-considering-sending-10k-troops-to-middle-east-report/>
9. Nuyts, J., & van der Auwera, J. (Eds.). The Oxford Handbook of Modality and Mood. - Oxford: Oxford University Press, 2016. – 640 p.
10. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining joriy yilning I choragidagi pul-kredit siyosati sharhi. (2026, 15 aprel). O‘zbekiston Respublikasi Markaziy

banki rasmiiy axborot portali. – URL:
https://cbu.uz/uz/press_center/releases/3611321/

11. Palmer, F. R. Mood and Modality (2nd ed.). - Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 236 p.
12. Shukurova, Z. Ommaviy axborot vositalari diskursining pragmatik va manipulyativ tabiati. O‘zbek tili va adabiyoti, 2022. (4), 42–48.

REFERENCES

1. Anthony, L. (2022). *AntConc* (Version 4.2.0) [Computer Software]. Tokyo: Waseda University. – Available at:
<https://www.laurenceanthony.net/software/antconc/>
2. Askarov, D. Violations were identified in public procurement totaling 25 billion soums. Kun.uz electronic publication. (2026, March 28). - URL:
<https://kun.uz/news/2026/03/28/25-mlrd-somlik-davlat-xaridlarida-qonunbuzarliklar-aniqlandi>
3. Bednarek, M. (2006). *Evaluation in Media Discourse: Analysis of a Newspaper Corpus*. London; New York: Continuum. – 256 p.
4. Bobojonov, D. (2024). Pragmatic characteristics of English and Uzbek newspaper headlines. *Issues of Philology*, (2), 195–202.
5. Boymatova, D. (2024). Semantic-pragmatic study of axiological modality in complicated simple sentences. *Foreign Languages in Uzbekistan*, 3 (52), 12-19.
6. Fairclough, N. (2013). *Critical Discourse Analysis: The Critical Study of Language* (2nd ed.). London: Routledge. – 616 p.
7. Ferré-Sadurní, L., & Romero, S. (2026, March 24). The U.S. said it helped bomb a drug camp. It was a dairy farm. *The New York Times*. – URL:
<https://www.nytimes.com/2026/03/24/world/americas/us-ecuador-drug-camp-bombing-dairy-farm.html>

8. Nava, V. (2026, March 26). Pentagon considering sending 10k troops to the Middle East: report. *The New York Post*. – URL: <https://nypost.com/2026/03/26/us-news/pentagon-considering-sending-10k-troops-to-middle-east-report/>
9. Nuyts, J., & van der Auwera, J. (Eds.). (2016). *The Oxford Handbook of Modality and Mood*. Oxford: Oxford University Press. – 640 p.
10. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2026, April 15). *O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining joriy yilning I choragidagi pul-kredit siyosati sharhi* [Review of the monetary policy of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan for the first quarter of this year]. Official Information Portal of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan. – URL: https://cbu.uz/uz/press_center/releases/3611321/
11. Palmer, F. R. (2001). *Mood and Modality* (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press. – 236 p.
12. Shukurova, Z. (2022). Pragmalinguistic and manipulative nature of mass media discourse. *Uzbek Language and Literature*, (4), 42–48.